



KRANIOMETRIK TADQIQOTLARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI ROLI

Shohjahon Abdullajon o'g'li Adhamov

Andijon davlat tibbiyot instituti pediatriya fakulteti 4-bosqich

talabasi. G-mail: shohjahonadi@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10163750>

ARTICLE INFO

Received: 15th November 2023

Accepted: 20th November 2023

Online: 21th November 2023

KEY WORDS

Kraniometrik ko'rsatkichlar, aholi salomatligini baholash, antropometrik va yoshga bog'liq individual xususiyatlar, antropometrik standartlar, kraniometriya, jismoniy taraqqiyot, yoshga bog'liq antropologiya.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada jismoniy rivojlanishni ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda o'rganishda, bolalar jismoniy rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishda kraniometrik tadqiqotlarning tutgan o'rne, ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning fikr va mulohazalari, kraniometriyaning bugungi zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyati va rivojlanish istiqbollari haqida yoritilgan.

KIRISH

Hozirgi kunga kelib, mamlakatimizda o'rganilgan ekologik, geografik va yoshga bog'liq antropometriyaga oid bajarilgan ilmiy tadqiqotlar jismonan baquvvat farzandlarni voyaga yetkazish va ularni barkamol qilib tarbiyalashni ta'minlash loyihalari va tadbirlarini amalga oshirishga to'liq ko'maklashish uchun yetarli emas. Buning oqibatida bolalarni jismoniy taraqqiyotini va ularning antropometrik xususiyatlarini baholashda, jismoniy rivojlanishning yangi standartlarini ishlab chiqishda biz hali hanuzgacha chet el olimlari tomonidan qilingan ilmiy tadqiqotlarning natijalariga tayanmoqdamiz.

Sport tibbiyoti sohasida fundamental, amaliy va innovatsiya ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, sport patologiyasining oldini olish va davolashning ilg'or uslublari, yo'l qo'yilgan jismoniy yuklamalar, sport turining xususiyatlarini hisobga olgan holda sportchilarning diagnostika va funksional holatini yaxshilash standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, musobaqalarga tayyorlashda sportchilarni kuzatib borishda ham antropometrik ko'rsatkichlarning o'rni beqiyosdir.

Jismoniy rivojlanishni ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda o'rganish aholi salomatligini baholashning nisbatan ob'ektiv va yagona ko'rsatkichi hisoblanadi. Bolalarni sportning ma'lum bir turiga yo'naltirishda ularning o'ziga xos antropometrik va yoshga bog'liq individual xususiyatlarini hisobga olish asosiy talablardan biridir. Bolalarda antropometrik ma'lumotlar, funksional imkoniyatlar va salomatlikdagi nuqsonlarni aniqlash



hamda tavsiflash uchun, ushbu bolalar yashayotgan geografik zonadan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan antropometrik standartlardan foydalanish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yoshga bog'liq antropologiya ma'lum bir muhitda joylashgan odam tanasidagi o'sish va rivojlanish jarayonlarini o'rganadi. Turli xil geografik zonalarda, shuningdek har xil sharoitlarda yashaydigan bolalardagi o'sish jarayonlarini antropologik jihatdan o'rganish odam ekologiyasi va tibbiy geografiyaning muammolarini echishda muhim ahamiyatga ega [1, 2].

Ayrim mualliflarning (F.F. Rappoport va E.I. Praxina, 1970) fikricha, boshning me'yoriy ko'rsatkichlari to'g'risidagi bilimlar bolalar kasalliklari va akusherlik klinikalarida juda ham zarur. Chunki boshning o'lchamlariga qarab bolalardagi bir qancha kasalliklarga tashxis qo'yish mumkin.

Kraniometriyaning maqsadi faqatgina kallaning mutloq o'lchamlarini sonlar bilan izohlash bo'libgina qolmay, balki kalla qismlarining o'lchamlari orasidagi nisbatni aniqlash, kallaning umumiy shakliga yoki uning ma'lum bir qismlariga matematik aniq izoh berish va ushbu tahlillarni son o'lchamlarida izohlashdan iborat (P.Broka, 1879).

NATIJALAR

Alohida har bir bolaning va bolalar jamoasining jismoniy rivojlanishiga baho berish uchun muayyan o'rtacha standart, yangi nusxa bilan solishtirib ko'riladi. Lekin bu nusxalarga doimiy va o'zgarmaydigan deb qarash yaramaydi, chunki normal o'sish va rivojlanish doimiy o'zgarib turadi. Bolalarning to'g'ri o'sib rivojlanib borishlarini bilish uchun har bir yoshda bo'lgan o'rtacha raqamni bilish yetarli. Undan keyin bolaning yoshiga qarab, bu raqamlarning qanday o'zgarib turishini ko'zdan kechirib turmoq kerak.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, antropometriya sohasida olimlar tomonidan olib borilgan ishlar ichida yoshga bog'liq antropometriyaga doir tadqiqotlarning salmog'i anchaginani tashkil etadi. Ammo antropometriyaga oid mavjud adabiyotlarda kraniometriyaga doir olib borilgan ishlar juda kam. Shuningdek ularda ko'pincha qarama-qarshiliklar mavjud va kraniometrik ko'rsatkichlarning o'sish qonuniyatlari to'liq yoritilmagan.

Kraniometrik o'lchashlarni amalga oshirishda quyidagi ketma-ketlikdagi usullar bajarildi:

- 1) ob'ekt tanlab olinadi;
- 2) tanlab oliingan bolalarning kraniometrik ko'rsatkichlari o'lchanadi;
- 3) olingan ma'lumotlar asosida kraniometrik indekslar maxsus formulalar yordamida hisoblab chiqiladi;
- 4) kraniometrik o'lchashlarda olingan barcha raqamli ko'rsatkichlar variatsion statistika usullari yordamida qayta ishlanadi;
- 5) olingan barcha ma'lumotlar yig'iladi va jamlanadi, tahlil qilinadi.

Olingan natijalar postnatal ontogeneza kichik maktab yoshidagi bolalar kallasi kraniometrik ko'rsatkichlarining yoshga oid xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarimizni to'ldiradi.

MUHOKAMA



Kraniometrik ko'rsatkichlarni rivojlanishiga geografik, ekologik, etnik va ijtimoiy omillarning ta'sir etishi masalasi ko'plab tadqiqotchilarning nuqtai nazaridan tashqarida qolib ketgan.

Yuqoridagilarga bog'liq holda bolalar kraniometrik ko'rsatkichlarining rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishda va ularni yanada chuqurroq tahlil qilishda quyidagilarni aniqlash lozim:

- Bolalarning kraniometrik ko'rsatkichlarini o'sish dinamikasini tavsiflash.
- Bolalarning kraniometrik ko'rsatkichlarini nisbatan intensiv o'sish davrlarini aniqlash.
- Bolalar kalla suyagi va uning ma'lum bir qismlari orasidagi o'zaro nisbatlarni aniqlash.
- O'g'il va qiz bolalar kalla suyagi kraniometrik ko'rsatkichlari orasidagi jinsiy tafovutlarni aniqlash.

XULOSA

Kichik maktab yoshidagi bolalardan olingan kraniometrik ko'rsatkichlardan odam anatomiyasi, topografik anatomiya, jarrohlik stomatologiyasi, ortopedik stomatologiya, ortodontiya, bolalar stomatologiyasi, pediatriya, sud tibbiyoti kafedralarida olib boriladigan o'quv jarayonlarida, shuningdek amaliy mashg'ulot va ma'ruza materiallarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Olingan kraniometrik ko'rsatkichlarni yuz-jag' rekonstruktiv plastik jarroxligida, sud-tibbiy ekspertiza amaliyotida, jismoniy rivojlanishning yangi standartlarini ishlab chiqishda, yuz-jag' sohasi protezlarini ishlab chiqarish va yuz-jag' sohasini protezlashda, bosh kiyimlarini ishlab chiqarishda yangi standartlarni yaratish va odamlar orasidagi irqiy, etnik va populyatsion tafovutlarni o'rganishda qo'llash mumkin.

References:

1. Казначеев, В.П. (1983). *Очерки теории и практики экологии человека*. - М.: Медицина.
2. Казначеев, В.П. (1980). *Современные аспекты адаптации*. - Новосибирск: Наука. - 192 с.
3. Раппопорт, Ж.Ж., Прахин, Е.И. (1970) *Физическое развитие детей*. - Красноярск. - 265 с.
4. Раимжанов, Р.Р. (2014) *Андижон вилояти Андижон тумани шароитида яшовчи кичик мактаб ёшидаги болаларнинг краниометрик кўрсаткичлари*. /Диссертация. Андижан.
5. Shokirov, X.U. (2017). *Andijon viloyati Andijon shahri sharoitida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarning kraniometrik ko'rsatkichlari* // Magistrlik dissertatsiyasi. Andijon.
6. Ulug'bekova, G.J. Adhamov, Sh.A. (2023). *Andijon viloyati Andijon shahri sharoitida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarning kraniometrik ko'rsatkichlari (monografiya)*. "Andijon nashriyot-matbaa" MCHJ. 112 bet.
7. Ulug'bekova, G.J. Adhamov, Sh.A. (2023). *Andijon viloyati Izboskan tumani sharoitida yashovchi 7-12 yoshdagi bolalarning kraniometrik ko'rsatkichlari (monografiya)* "Andijon nashriyot-matbaa" MCHJ. 116 bet.



8. Ulug'bekova, G.J. Adhamov, Sh.A. (2023). Profilaktik tibbiyotda antropometrik tadqiqotlarning o'рни. *"Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida" xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari to'plami*, Qo'qon, 227-231-b.
9. Ulug'bekova, G.J., Adhamov Sh.A. (2023). Andijon shahri va Izboskan tumanida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarda boshning bo'ylama diametri o'sish dinamikasining qiyosiy tahlili. *Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi-4-1/*, 209-211 b.
10. Ulug'bekova, G.J., Adkhamov, Sh.A. (2023). Comparative analysis of growth indicators of the eye socket in subjects aged 7-12 years living in Andijan city and Izboskan district// *Journal of Biomedicine and Practice*. vol. 8, issue 1, 197-201 b.
11. Ulug'bekova, G.J., Jalolov, I.A., Adhamov, Sh.A. (2023). 7-12 yoshdagi bolalarda yuzning o'rta kengligi kraniometrik ko'rsatkichlari. *Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi*, Xiva, 5-2/, 255-257-b.
12. Ulug'bekova, G.J. Adhamov, Sh.A. (2023). Kichik maktab yoshidagi bolalarda yuzning morfologik balandligi o'sish dinamikasi. *O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari*, Toshkent, №3/1/1, 160-161-b.